Bioxilma-xillik tadqiqotlarida xalqaro hamkorlik mustahkamlanmoqda

Janubiy Koreyaning Milliy biologik resurslar instituti (NIBR) va Seul Milliy universitetining taniqli olimlari Dr. Min Whan Suh, Dr. Changmu Kim, Dr. Hyun Lee va Dr. Young Woonlar Botanika institutiga tashrif buyurishdi. Ushbu tashrif ikkala davlat o‘rtasidagi bioxilma-xillik tadqiqotlari sohasidagi xalqaro hamkorlikda muhim qadam bo‘ldi.







Tashrif davomida, ikki davlatlar orasida ilmiy aloqalarni yanada mustahkamlash, O’zbekiston bioxilmaxilligini hamkorlikda taqiq etish, ilmiy-amaliy loyihalar, seminar, uchrashuvlar va dala ekspeditsiyalarini amalga oshirish, ilmiy xodimlar uchun qisqa muddatli trening kurslarini tashkil qilish, ilmiy stajirovkaga yuborishga ko‘maklashish va hamkorlikda nufuzli jurnallarda ilmiy maqolalar chop etish uchun memorandum imzolandi, bu Janubiy Koreya Respublikasi Milliy biologik resurslar instituti va Botanika instituti o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash yo‘lidagi muhim hujjatdir. Ushbu kelishuv O‘zbekiston bioxilma-xilligini o‘rganish va saqlashga qaratilgan qo‘shma tadqiqot loyihalari va kooperatsion faoliyat uchun asos yaratadi.

Botanika instituti direktori akademik K.Sh.Tojibayev, katta ilmiy xodim Yu.G’afforov, Milliy biologik resurslar instituti prezidenti Dr. Min Whan Suh, direktori Dr. Changmu Kimlar memorandum imzolamoqda.

NIBR va Botanika instituti direktorlarining imzolagan memorandum orqali hamkorlik rasman tasdiqlandi.

Ushbu kelishuv bioxilma-xillikni tadqiq qilish bo‘yicha qo‘shma loyihalarni amalga oshirish uchun asosiy maqsadlar, hajm va strategiyalarni belgilaydi. Bu, shuningdek, biota tekshiruvlari, taksonomik tadqiqotlar va biologik namunalar va resurslar almashinuvi kabi tadbirlarda hamkorlik qilishni ko‘zda tutadi.

Har ikki tomonning olimlari o‘z tajribalarini o‘rtoqlashishdi va amaldagi tadqiqot loyihalarini muhokama qilishdi. Bu tadbirda savol-javoblar sessiyasi va ikki davlat bioxilma-xillik tadqiqotlari kelajagi haqida qizg‘in muhokamalar bo‘lib o‘tdi. Bu fikr almashinuvi ikki institut o‘rtasidagi aloqalarni yanada mustahkamladi.

Botanika instituti direktori akademik Komiljon Tojibayev: "Biz NIBR bilan ushbu muhim tashabbusda hamkorlik qilishdan faxrlanamiz. Birgalikda O‘zbekistonning boy bioxilma-xilligini o‘rganamiz va hujjatlashtiramiz, bu esa kelajak avlodlar uchun uning saqlanishini ta’minlaydi”.

Milliy biologik resurslar instituti prezidenti Dr. Min Whan Suh biologik xilma xillikni saqlash, turlarni muhofaza qilishni bugungi kundagi dolzarb vazifalarimiz ekanligini ta’kidladi. Tashrif davomida ikki tomon ham o‘z vazifalari va majburiyatlari bo‘yicha kelishib olishdi. Ular bioxilma-xillikni o‘rganish bo‘yicha qo‘shma ekspeditsiyalar, taksonomik tadqiqotlar va ikki davlat o‘rtasida namunalar almashinuvi borasida hamkorlik qilishadi. Shuningdek, tomonlar moliyaviy shartlar va uchinchi tomonlarni jalb qilish bo‘yicha kelishib olishdi.

Janubiy Koreya Respublikasi Milliy biologik resurslar instituti (NIBR) direktori Dr. Changmu Kim: "Bu kelishuv bizning muassasalar o‘rtasidagi hamkorlikda yangi davrni belgilaydi. Biz qo‘shma tadqiqot loyihalarini amalga oshirishni sabrsizlik bilan kutmoqdamiz, bu esa bioxilma-xillik haqida global tushunchani sezilarli darajada kengaytiradi" .

Ushbu Memorandumning imzolanishi O‘zbekistonda bioxilma-xillikni yanada chuqurroq o‘rganish va saqlashga hissa qo‘shuvchi ikki davlat uchun ham manfaatli tadbirdir. Bu kelishuv ikki davlatning ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va biologik xilma-xillikni himoya qilish bo‘yicha umumiy majburiyatini aks ettiradi.

Ushbu hamkorlik uzoq muddatli hamkorlikka yo‘l ochadi, bu O‘zbekiston bioxilma-xilligi haqida qimmatli bilimlar beradi va uning global saqlanishiga hissa qo‘shadi.

Ta’kidlash joizki, xorijlik olimlarni jalb qilish, memorandum loyihasini tayyorlash, seminar tashkil etish kabi tashabbuslar Mikologiya va algologiya laboratoriyasi katta ilmiy xodimi Yusufjon G‘afforov tomonidan amalga oshirildi.

Tadbir yakunida milliy qadriyatlarimiz aks etgan esdalik sovg‘alari hamda O‘zbekiston va Janubiy Korea florasi monografiyalari to‘plamlarini almashishdi.